

COVID-19: BAAGA kirish uchun yangilangan qoidalari

2022 2 March

Uzbekistan Airways Birlashgan Arab Amirliklari shaharlariga kirish qoidalari o'zgarganligini ma'lum qiladi. 2022-yil 26-fevraldan boshlab yo'lovchilar mamlakatga kirish uchun uchta amaldagi hujjatdan birini taqdim etishlari kerak:

- JSST yoki BAA tomonidan tasdiqlangan emlanganlik (2 doza) to'g'risidagi sertifikat;
- Covid-19 testining manfiy natijasi (amal qilish muddati 48 soat);
- yo'lovchining 1 oy ichida Covid-19 dan tuzalib ketganini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnoma (sog'aygan sanasi va BAAGA kelgan sanasi).

Yuqorida ko'rsatilgan barcha sertifikat/hujjatlar ingliz yoki arab tillarida chop etilishi va QR-kodiga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagi talablar bajarilmagan holda, yo'lovchilar havo kemasi sahniga qo'yilmaydi.